

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2024



No 6

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 126 sahifa.
E'lon qilishga 2024-yil 25-iyunda ruxsat etildi.*

Bosh muharrir o'rinbosari:
Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUprofessori
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Musayeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori
Cham Tat Huei, (PhD) USCI universiteti professori, Malayziya
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi
Djudi Smetana, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Krissi Lyuis, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Ali Konak (Али Кўнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya
Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Oqil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Rae Kwon Chung, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

Osman Mesten, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Sayfullo Normatovich CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

Siddikova Sadokat Ghaforovna, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, DSc, Prof., of TSUE

Samadov Askarjon Nishonovich, CSc, Prof., of TSUE

Slizovsky Dimitriy Yegorovich, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

Akhmedov Ikrom Akramovich, DSc, Prof., of TSUE

Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

Ochilov Farkhod, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

Eshtayev Alisher Abduganievich, DSc, Prof., of TSUE

Shoira Azimovna Musaeva, professor of SamDu IS Institute

Cham Tat Huei, PhD, professor at USCI University, Malaysia

Akhmedov Javokhir Jamolovich, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

Judy Smetana CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Chrissy Lewis CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Ali Konak DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

Glazova Marina Viktorovna, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, associate professor of TSUE

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, independent researcher of TSUE

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

G'afurov Doniyor Orifovich, p.f.f.d., (PhD)

Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Oliy ta'lim islohotlarida – muhandislik maktablarini institutsional rivojlantirish asoslari	16
Qo'ng'iro'tboy Avezimbetovich Sharipov, Abduqunduzova Nazokat Usmonqulovna	
Xufiyona iqtisodiyot mamlakatimiz rivojiga to'siq bo'lmoqda	20
Muxiddin Kalonov	
"Yashil" iqtisodiyotni moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish	24
Muhammadiyeva Maftuna	
Oliy ta'lim tizimidagi islohotlarda innovatsion yechimlarning zarurati	27
Abduqunduzova Nazokat Usmonqulovna	
Hududiy turizm rivojlanishining iqtisodiy samaradorligini oshirishda ish beruvchilar va yonlanuvchilar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni aniq sotsiologik baholash.....	31
Dustmurodov Orifjon Ismatilloevich	
Перспективы развития средств размещения в экологическом туризме на охраняемых природных территориях Узбекистана	40
Ахмедходжаев Равшан Темурович	
Bank kartalari orqali ko'rsatilayotgan xizmatlari bozorining rivojlanish borasidagi asosiy tendensiyalari va muammolari	49
To'irov Yunus Alamovich	
Kichik biznes subyektlarida innovatsionraqabatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish orqali import o'rnini bosish strategiyasini shakllantirish istiqbollari	55
Rustamov Alisher Raxmataliyevich	
Nodavlat umumiy o'rta ta'lim maktabning faoliyati samaradorligini aniqlashda innovatsion usullardan foydalanish.....	62
Ustadjalilova Xurshida Aliyevna	
Tijorat banklarida bank risklarini boshqarishning strategik ahamiyati.....	67
Altibayev Xudayberdi Kuvandikovich	
Klaster iqtisodiy subyekt sifatida: mohiyati va tasnifi.....	71
Usmonov Sharofiddin Pazlitdinovich	
Tijorat banklari tomonidan yoshlar tadbirkorlik faoliyatini kreditlashning nazariy-uslubiy jihatlari.....	76
Asrorov Azizbek Isomiddin o'g'li	
Oliy ta'lim muassasalari xalqaro tasnifi: nazariya va tendensiya.....	81
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
Iqtisodiyot transformatsiyasi sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy resurslarini boshqarishda metodologik yondashuvlar va ilmiy qarashlar	86
Jiyanova Nargiza Esanboyevna	
Davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini samarali tashkil etish mezonlari va omillari.....	93
Z. Abdikarimova, S. Madaminov	
Savdo korxonalari boshqaruv samaradorligini oshirish imkoniyatlari.....	97
Q. J. Mirzayev, Sh. M. Islomov	
Sociological Assessment of Migration Processes	102
Gulmurodov Kamoliddin Abdukodir ugli	
Current issues of business management in the context of digitalization of the economy	112
Safarov Bakhtiyor Djurakulovich, Kadirova Zulhumor Namazovna, Dadabaev Kuchkor Abdullaevich	
Методические основы маркетинговых стратегий акционерных обществ.....	118
Эркинов Шахзод Баходир ўғли	



OLIY TA'LIM MUASSASALARI XALQARO TASNIFI: NAZARIYA VA TENDENSIYA

Yuldashev Iskandar Bahromovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada oliy ta'lim muassasalarining xalqaro tasnifining o'ziga xos xususiyati va nazariy asoslari tadqiq etilgan. Xalqaro tasnifning shakllanishiga xizmat qiluvchi omillarning vujudga kelishi va ularni baholash yuzasidan mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy asarlari tizimlashtirilgan va ularga nisbatan mustaqil yondashuvlar ishlab chiqilgan. Olib borilgan tadqiqotlar asosida oliy ta'lim muassasalarini xalqaro tasnif bo'yicha rivojlantirishga qaratilgan ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim muassasasi, universitet, xalqaro reyting, ta'lim sifati, innovatsion ta'lim menejmenti.

Abstract: The article examines the specific features and theoretical foundations of the international classification of higher education institutions. The scientific works of local and foreign scientists have been systematized and independent approaches have been developed in relation to the emergence of factors that serve the formation of the international classification and their assessment. Based on the conducted research, scientific proposals and recommendations aimed at the development of higher education institutions according to international classification have been developed.

Key words: higher education institution, university, international rating, quality of education, innovative education management.

Аннотация: В статье рассматриваются особенности и теоретические основы международной классификации высших учебных заведений. Систематизированы научные труды отечественных и зарубежных учёных и разработаны самостоятельные подходы в отношении возникновения факторов, служащих формированию международной классификации и их оценке. На основе проведенных исследований разработаны научные предложения и рекомендации, направленные на развитие высших учебных заведений по международной классификации.

Ключевые слова: высшее учебное заведение, университет, международный рейтинг, качество образования, инновационный менеджмент образования.

KIRISH

Milliy iqtisodiyotning sifat jihatidan rivojlanishida oliy ta'lim tizimining roli muhim hisoblanadi. Ishlab chiqarilayotgan mahsulot, ish va xizmatlarning tarkibida ilmiy sig'imkorlikning yuqori bo'lishi ko'p jihatdan oliy ta'lim tizimida tayyorlanayotgan mutaxassis kadrlarning salohiyati va ularning raqobatbardoshlik darajasi bilan baholalanadi. Shu nuqtayi nazardan, oliy ta'lim muassasasining xalqaro standart mezonlari asosida tashkil etish va uni yanada rivojlantirish bizning asrimizning dolzarb masalalaridan biri bo'lmoqda.

Jahonning ko'plab mamlakatlarida oliy ta'lim muassasalari tashkil etilgan bo'lib, ular milliy iqtisodiyot uchun kadrlar tayyorlab berishda asosiy institut vazifasini o'taydi. Umuman olganda, iqtisodiyotda yuqori malakali kadrlarni tayyorlash va ularni iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishdagi rolini mustahkamlashda oliy ta'lim muassasalari nafaqat milliy darajada, balki xalqaro darajada ham raqobatga kirishishiga zaruratning shakllanganligini kuzatish mumkin. Xalqaro va milliy mehnat bozoridagi raqobatning keskin rivojlanayotganligi nafaqat inson va inson o'rtasidagi kurashish bilan ifodalanadi, balki inson va yuqori texnologiyalar o'rtasidagi kurashning vujudga kelganligi bilan ham o'z aksini topadi. Bu esa, insonlardan sifatli ta'limni olishga bo'lgan ehtiyojning shakllanishiga olib kelmoqda.

Ma'lumki, bizning asrimiz axborot texnologiyalari davri bo'lishi bilan ham yangi rivojlanish bosqichini boshlab bermoqda. Bunda axborot-roboto texnologiyalarning mehnat bozoriga kirib kelishi alohida ahamiyatga bo'lmoqda. Shu boisdan, oliy ta'lim muassasalari to'xtovsiz takomillashayotgan xalqaro standart mezonlariga moslashishi va uning doirasida yuqori reputatsiyaga ega bo'lishi oliy ta'lim muassasalari oldida turgan asosiy omillardan biri hisoblanadi, desak mubolag'a bo'lmaydi.



Bizningcha, oliy ta'lim muassasasining xalqaro tasnifi uning xalqaro mezonlar bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarga erishishi natijasida jahon oliy ta'lim muassasalarining tan olingan reytinglarida qayd etilish bilan ifodalanadi, deb o'ylaymiz. Shu boisdan, oliy ta'lim muassasalarining xalqaro mezonlar asosida jahon tasnifidagi universitet sifatida rivojlantirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Oliy ta'lim muassasalarining xalqaro tasnifi yuzasidan ko'plab tadqiqotlar olib borilgan bo'lsada, o'zbek tilida aynan tasnif nuqtayi nazaridan tadqiqotlarni kamroq amalga oshirilganligini ta'kidlash lozim. 2024-yilning 10-iyun holatida Google Academy qidiruv sayti orqali "oliy ta'lim muassasasi xalqaro tasnifi", "universitet xalqaro tasnifi" va "oliy ta'lim xalqaro tasnifi" deb qidiruvlar berganimizda o'zbek tilida to'g'ridan to'g'ri ushbu mazmundagi mos ilmiy asarlarni uchratish qiyin bo'ldi. Bu esa, xalqaro tasnif kategoriyasiga nisbatan o'zbek tilida tadqiqotlarni ko'proq amalga oshirishga bo'lgan zaruratni o'zida ifodalab beradi.

O'zbek tilida amalga oshirilgan tadqiqotlarda oliy ta'lim muassasasi xalqaro tasnifini to'g'ridan to'g'ri ifodalab beradigan ilmiy izlanishlar olib borilmagan bo'lsada, oliy ta'lim muassasasining reytingi, uni rivojlantirish strategiyasi va raqobatbardoshligini ta'minlashga qaratilgan bir qator ilmiy asarlar e'lon qilinganligini kuza-tish mumkin. Shu boisdan, universitetlarning xalqaro tasnifiga nisbatan yondashuvini o'zbek tilidagi turdosh mazmundagi ilmiy xulosalarni asoslagan tadqiqotlarni o'rganishga e'tibor qaratamiz.

Prof. T.Teshabayev o'zining doktorlik dissertatsiyasida oliy ta'lim tizimida innovatsion faoliyatni boshqarishda axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini tahlil qilgan ^[1]. Uning fikricha, "oliy ta'lim muassasalarida sifat menejmenti tizimini tatbiq qilish ta'lim xizmatlari bozorida bir qator afzalliklarga ega. Sertifikatlangan OTMLar o'z imidj va ta'lim sifatini boshqarish darajasini xalqaro standart ISO 9000 bo'yicha oshiradilar, shuningdek, dunyo universitetlari reytingida (Times Higher Education) qatnashish imkoniyati paydo bo'ladi", deb ta'kidlab o'tadi. Shuningdek, oliy ta'lim tizimini Klaster yondashuvi asosida boshqarish universitetlarning jahon oliy ta'lim universitetlari (Times Higher Education World university rankings) reytingida ijobiy ta'sir ko'rsatishi bilan raqobatbardoshlik oshirishini asoslab beradi.

Prof. N. Raxmonov tomonidan o'zining doktorlik dissertatsiyasida oliy ta'lim tizimida kadrlar tayyorlash masalasiga e'tibor qaratadi. N.Raxmonov o'zining ilmiy xulosasida oliy ta'lim muassasalarining ishlab chiqarish va mehnat bozori o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish orqali raqobatbardoshlikni ta'minlashni asoslab beradi. Shuningdek, ta'lim sifatini baholashda inobatga olinishi lozim bo'lgan ko'rsatkichlarni tizimlashtirishga harakat qiladi. Jumladan, talaba va o'qituvchi shaxsining rivojlanish darajasi, boshqarish va ta'lim jarayoni qatnashchilarining motivatsiya darajasi, bilimlar, malaka va ko'nikmalar darajasini tavsiflab beruvchi omillarni keltirib o'tadi ^[2].

G.Sa'dullayeva oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning marketing strategiyasining o'ziga xos xususiyatlari to'g'risidagi xulosalarni shakllantirishga harakat qilgan ^[3]. Ta'lim xizmatlari bozorida raqobat kurashining vujudga kelishida universitetlarning marketing strategiyasini ishlab chiqishga tabaqalashgan yondashuvni taklif etadi.

N.Zufarova oliy ta'limda brend kapitalini yaratishga qaratilgan ilmiy ishni bajargan. Uning tadqiqotlarida oiy ta'lim tizimida universitetlarning brendlarini yaratish va uning milliy, xalqaro bozorlardagi darajalarini mustahkamlashga doir o'zining ilmiy takliflarini asoslashga harakat qiladi. Shuningdek, oliy ta'lim tizimida brend kapitalini rivojlantirishda "brend nufuzi" omili asosida SEM modelini tavsiya etgan ^[4].

Bizningcha, o'zbek tilida amalga oshirilgan tadqiqotlarda oliy ta'lim muassasalarining xalqaro tasnifini rivojlantirishda ta'lim sifati alohida ahamiyatga ega ekanligi qayd etilmoqda. Jumladan, xalqaro sifat sertifikatiga ega bo'lish orqali universitetlarning global reytinglarda o'rin olishiga erishish mumkinligi, ish beruvchilar bilan hamkorlik kabi elementlar jahon tasnifini shakllantirishga xizmat qilishi ta'kidlab o'tilmoqda.

Oliy ta'lim tizimida xalqaro tasnifning shakllanishi raqobatbardoshlikning vujudga kelishi bilan ifodalanishi ham ayrim tadqiqotlarda o'zining aksini topgan. Jumladan, D.Nishonov tomonidan oliy ta'limda raqobatbardoshlikni ta'minlashning marketing strategiyalari to'g'risida ilmiy xulosalarni asoslashga harakat qiladi. Uning fikricha, oliy ta'lim muassasalariga xorijiy professor-o'qituvchilarni jalb etishda ularga to'lanadigan moliyaviy rag'batlantirishni to'lash uchun samaradorlik mezonlarini ishlab chiqishdagi mustaqillik o'ziga xosligi ta'kidlab o'tiladi. Shuningdek, universitetlarning raqobatbardoshligini oshirishda davlatning fiskal qo'llab-quvvatlashiga bo'lgan zaruratni asoslashga e'tibor beradi ^[5].

B.Adizov ham o'zining doktorlik dissertatsiyasida oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligiga nisbatan yondashuvlarni shakllantirib beradi. Jumladan, raqobatbardoshlikni ta'minlashda universitet bitiruvchilarining raqobatbardoshligi ichki va tashqi omillarga tayangan holda bo'lishi asoslab beriladi. Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining raqobatbardoshligini integral koeffitsiyenti asosida baholashni taklif etadi. Shu bilan birga, oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari raqobatbardoshligini psixofiziologik, kasbiy-malaka omillari asosida boshqaruv samaradorligini oshirishning maqsadga muvofiqligi asoslab beradi ^[6].



A.Hamidova o'zining doktorlik dissertatsiyasida ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini tahlil etgna qaratilgan izlanishlarni amalga oshiradi. Mazkur ilmiy asarda oliy ta'lim tizimining rivojlanishi, oliy ta'lim xizmatlari uchun to'lovlarning hajmini aniqlash kabi jihatlariga e'tibor qaratadi. Shu bilan birga, oliy ta'lim muassasasi bitiruvchilarining xalqaro mehnat bozoriga qo'shilishi oliy ta'lim bozorining rivojlanishiga xizmat qilishini ta'kidlab o'tadi ^[7].

J.Abdullayev o'zining ilmiy tadqiqotida oliy ta'lim muassasalarida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishda universitetlarning iqtibolli yo'nalishlar triadasi (stipendiya va grant loyihalari, moddiy-texnik baza, biznes-o'yin va trening)ni shakllantirish asosida strategiyani ishlab chiqishni taklif etadi. Davlat-xususiy sheriklik asosida biznes subyektlarining ishtiroki reytingni oshirishga olib kelishini ta'kidlab o'tadi ^[8].

Oliy ta'lim muassasalarining xalqaro tasnifi shakllantirishda turli omillar nuqtayi nazaridan ilmiy xulosalarni ko'rish mumkin. Bizningcha, universitetlarning jahon standartlari asosida global reputatsiyaga ega bo'lishi ko'p jihatdan strategik rejalashtirish, raqobatbardoshlik va moliyaviy menejment omillariga bog'liq bo'lmoqda. Umuman olganda, o'zbek tilidagi tadqiqotlar yuzasidan izlanishlarimiz natijasida quyidagi dastlabki xulosalarimizni shakllantirishga harakat qildik:

- Oliy ta'lim muassasalarining xalqaro tasnif bo'yicha rivojlantirishda xalqaro reyting agentliklarining mezonlariga e'tibor qaratish;
- Xalqaro reyting agentliklari tomonidan tavsiya etilgan indikatorlarni universitet faoliyatida rivojlantirishda xalqaro sifat sertifikatlari bo'lishini ham inobatga olish. Bunda ISO 9000 sinfiga kiradigan standartlarni nazarda tutish.
- Universitetlarning ishlab chiqarish tarmog'i va ish beruvchilar bilan bevosita hamkorligini rivojlantirish natijasida raqobatbardoshlikni ta'minlashga alohida e'tibor qaratish.
- Universitetlarning xalqaro tasnifi shakllantirishda oliy ta'lim muassasasining kapitali brendini shakllantirishga tarixiy nuqtayi nazardan e'tibor berish. Oliy ta'lim muassasasining brendini yaratish orqali nufuz kapitalini vujudga kelishiga erishi va bunda ham o'quv, ham ilmiy tadqiqot omillariga ratsional yondashuv zarur hisoblanadi.
- Universitetlarning raqobat ustunligini shakllantirishda o'quv jarayoni, ish beruvchi va ilmiy tadqiqotlar nuqtayi nazaridan uchlik spiralini o'zaro uyg'unlikda shakllantirish muhim hisoblanadi. Bunda ish beruvchilarning talabi asosida o'quv rejalarni ishlab chiqish va unda belgilangan fanlar doirasida ilmiy tadqiqotlarni tizimli amalga oshirishni nazarda tutish.

Umuman olganda, oliy ta'lim muassasalarini xalqaro tasnif bo'yicha rivojlantirishda o'zbek tilida olib borilgan dissertatsion tadqiqotlarda strategik rejalashtirish, raqobatbardoshlikni ta'minlash va xalqaro sifat standartlarini joriy etish kabi holatlar bilan izohlanmoqda. Shu boisdan, xalqaro tasnifni shakllantirishda raqobat ustunligi va unga erishishga nisbatan strategik yondashuvlarning mavjud ekanligi o'ziga xos xususiyat kasb etmoqda, deb hisoblaymiz.

TAHLIL VA NATIJALAR

Oliy ta'lim muassasalarining xalqaro tasnifi reyting agentliklari tomonidan ma'lum mezonlar asosida ularni turli maqomdagi reytinglarda qayd etishi bilan aniq miqdoriy o'lchovga ega bo'ladi, deb o'ylaymiz. Bunda universitetlarning raqobatbardosh kadrlar tayyorlash bilan bog'liq mexanizmining barcha jarayonlarini sifat standartlariga ega bo'lishi bilan ifodalash mumkin. O'z navbatida, o'quv jarayonida o'quv mashg'ulotlarini sifatli tashkil etish, professor-o'qituvchilar tomonidan jamiyat uchun foydali bo'lgan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishi, ish beruvchilar bilan faol hamkorlikning yo'lga qo'yilganligi bilan alohida ahamiyatga ega hisoblanadi, deb o'ylaymiz.

Bizningcha, o'quv mashg'ulotlarining sifatli olib borilishi oliy ta'lim muassasasining infratuzilmasi bilan professor-o'qituvchilarning yuqori pedagogik mahoratiga ham bog'liq hisoblanadi. Umuman olganda, o'quv mashg'ulotlarining sifatli tarzda tashkil etilishi asosida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga bo'lgan imkoniyatlarni doimiy monitoring qilishga imkon tug'iladi. Shu boisdan, sifatli o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish quyidagi institutsional elementlar bilan o'z ifodasini topadi, deb o'ylaymiz:

- Universitet auditoriyalarining ta'lim yo'nalishi talablariga mos kelishi. Bunda auditoriyalarning sig'imi, darsni tashkil etish yordam texnik jihozlarning mavjud bo'lishi, aqlli ekranlarning internet tarmog'iga ulanganligi kabilar izohlash mumkin.
- Professor-o'qituvchilarning o'z fani doirasida yuqori bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi, pedagogik mahorat yuzasidan malaka oshirish kurslaridan o'tganligi.
- Professor-o'qituvchilarning bir yillik o'quv yuklamlarining "ortiqcha akademik yuklama" kategoriyasining shakllashiga olib kelmasligi.
- Professor-o'qituvchilarning akademik va ilmiy yuklamlarining bir kunlik hajmi ularning salohiyatiga uyg'un tarzda ishlab chiqilganligi, shuningdek "aralash" yuklamaning vujudga kelmasligi uchun akademik va ilmiy faoliyat o'rtasidagi aniq chegaralarning belgilanganligi.

- Professor-o'qituvchilarning ish faoliyatini tashkil etishlari uchun universitet rahbariyatining ratsional yondashuvi va ularning mehatiga munosaib haq to'lash mexanizmining ishlab chiqilganligi.
- Oliy ta'lim muassasasida ilmiy tadqiqotlarni olib borilishi uchun xalqaro ilmiy bazalardan foydalanish imkoniyatining ta'minlanganligi. Ilmiy tadqiqot natijalarining xaqaro darajada e'lon qilinishining ham iqtisodiy, ham ijtimoiy nuqtayi nazardan e'tirof etilishi belgilanganligi.

Bizningcha, oliy ta'lim muassasalarining xalqaro tasnifini atroflicha tadqiq etish va uni baholashda bir nechta rakursdan yondashish orqali amalga oshirish mumkin, deb o'ylaymiz.

*Birinchi*dan, universitetning rahbariyati nuqtayi nazaridan oliy ta'lim muassasasi natijalarining baholanishi.


Ikkinchidan, professor-o'qituvchilar tomonidan universitetning akademik, ilmiy va boshqa faoliyat mexanizmlarini ichki va tashqi olmillar asosida baholanishi.

Uchinchidan, talabalar tomonidan xalqaro tasnif doirasidagi elementlarning baholanishi va ushbu elementlarga nisbatan yondashuvning qanday omillarga bogʻliqligini aniqlash.

To'rtinchidan, ish beruvchilar tomonidan universitetning bitiruvchilariga nisbatan ommalashgan yondashuvning mavjudligi yoki individual holda baholash asosida xalqaro tasniflanishdagi murakkabliklarni aniqlash kabilarni keltirish mumkin.

Shu boisdan, ingliz va rus tilida nashr etilgan ilmiy asarlarni tizimlashtirgan holda ilmiy xulosalarini tadqiq etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Oliy ta'lim muassasalarining xalqaro tasnifi bo'yicha ingliz tilida olib borilgan tadqiqotlarni tahlil qilib chiqish maqsadida Google Academy ilmiy asarlar qidiruv portaliga dastlab "building world class universities" degan mazmunda qidiruv berdik. Natijada, ushbu mazmunni aks ettiradigan ko'plab ilmiy tadqiqotlarni qayd etilganligini kuzatdik. Ushbu qidiruv natijasida jahon mamlakatlar nuqtayi nazaridan ham olib borilgan tadqiqotlarni ko'rishimiz mumkin. Biz ilmiy xulosalarni umum nazariy jihatdan amalga oshirganimiz uchun mamlakatlar kesimida tahlil qilishni tadqiqotimizning boshqa qismida amalga oshirishni reja qilganmiz.



1-rasm: Universitetni xalqaro tasnif bo'yicha rivojlantirish ekotizimi

J.Li tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotda ham xalqaro tasnifdagi oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirishga nisbatan o'zining ayrim ilmiy xulosalarini asoslab beradi [9]. U rivojlanayotgan mamlakatlar kesimida ushbu masala oliy ta'lim tizimi uchun fundamental ahamiyatga ega ekanligini qayd etib o'tadi. U tadqiqotini amalga oshirish davomida rivojlanayotgan mamlakatlarda joylashgan universitetlar jahon tasnifidagi universitet sifatida e'tirof etila oladimi, degan savolga javob topishga harakat qiladi. Shu boisdan, uchta bosqichda savol-



larni shakllantirib oladi. Birinchidan, xalqaro tasnifdagi universitetni xarakterlovchi ko'rsatkichlarni shakllantirish, ikkinchidan, mamlakatdagi universitet xalqaro tasnifni shakllantirish uchun salohiyati yetarli ekanligini baholash va uchinchidan, ikkinchi bosqichda aniqlangan fikrlar asosida qilinishi lozim bo'lgan chora-tadbirlarni tizimlashtirish. Ushbu tadqiqotlar natijasida, rivojlanayotgan mamlakatlardagi ko'plab universitetlar kuchli raqobat muhiti hukmron bo'lgan xalqaro oliy ta'lim bozoriga kirishi murakkablik kasb etadi degan xulosaga keladi. J.Li tomonidan, universitetni xalqaro tasnif bo'yicha rivojlantirishda e'tibor berilishi lozim bo'lgan ekotizimni taklif etadi (1-rasmga qarang).

De los Rios-Karmenado va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotda oliy ta'lim muassasalarini xalqaro tasnif bo'yicha rivojlantirishda innovatsion ta'lim menejmenti elementiga e'tibor qaratishadi [10]. Ularning fikricha, xalqaro tasnifdagi universitet boshqaruvining asosiy strategik omili – bu ta'limdagi innovatsiyalar ekanligi qayd etiladi. Shuningdek, innovatsion ta'lim bo'yicha xalqaro loyihalar universitet rolini mustahkamlashi, xalqaro reyting Webometric bo'yicha ko'rsatkichlari yuqorilashi ta'kidlab o'tiladi. Ular innovatsion ta'lim sifatni oshirishdagi asosiy element sifatida universitetlarning global darajada strategik rivojlanishlarini ta'minlashini ta'kidlab o'tishadi. Ularning xulosasiga ko'ra, universitetlarda innovatsion ta'lim elementlarining kuchayishi uning xalqaro reytingda yuqori o'ringa chiqishiga xizmat qilishi asoslab beriladi.

XULOSA

Bizningcha, ingliz tilida olib borilgan tadqiqotlarda oliy ta'lim muassasalarining xalqaro tasnif bo'yicha rivojlantirishda turli yondashuvlarni kuzatsakda, ularning yakdil xulosalarga kelishganligini kuzatish mumkin. Jumladan, universitetlarning ilmiy tadqiqotlardagi yetakchiligi, akademik faoliyatning innovatsion ahamiyatga ega ekanligi va institutsional jihatdan ratsional ekanligini qayd etish lozim. Umuman olganda, ilmiy xulosalarni o'rganishlarimiz natijasida, quyidagi ilmiy xulosalarni shakllantirishga muvaffaq bo'ldik:

Birinchidan, universitetlarni xalqaro tasnif bo'yicha rivojlantirishda infratuzilmaviy omillarni tizimlashtirish. Bunda asosiy va to'ldiruvchi ahamiyatga ega bo'lgan institutsional vektorlarni aniqlashtirish. Bunda universitetning o'quv jarayonini tashkil etish va ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishga imkon yaratadigan sig'imiga mos strategiyani ishlab chiqilishiga e'tibor qaratish.

Ikkinchidan, ta'lim jarayoni, ayniqsa o'quv mashg'ulotlari doirasida innovatsion yondashuvning rivojlanganligi ham muhim ahamiyatga ega.

Uchinchidan, yangi bilimlarni yaratishga va ularni ommalashtirish orqali hayot sifatini oshirishga xizmat qila olish imkoniyatini ta'minlash.

To'rtinchidan, xalqaro tasnif bo'yicha universitetni rivojlantirishda kamchiliklarni doimiy monitoring qilib borish va raqobat muhitida ko'rsatkichlarni saqlab qolishga e'iborni qaratish kabilarni keltirish mumkin.

Umuman olganda, xalqaro tasnif bo'yicha oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirishda mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan turli rkurslardan yondashuvlarni kuzatamiz. Shunday bo'lsada, oliy ta'lim muassasalarining xalqaro tasnif kategoriyasiga nisbatan umumiylikni kuzatishimiz mumkin. Jumladan, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, innovatsion ta'lim, yangi bilimlar yaratish va zamonaviy infratuzilma kabilar shular jumlasiga kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Teshabayev T.Z. Oliy ta'lim tizimida innovatsion faoliyatni axborot texnologiyalari asosida boshqarishni takomillashtirish: i.f.d. ... avtoreferat. – T.: TDIU, 2019. – 83 b.
2. Raxmonov N.R. Mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish asosida oliy ta'lim tizimida kadrlar tayyorlash sifatini oshirish: i.f.d. ... avtoreferat. – T.: O'ZMU, 2019. – 84 b.
3. Sa'dullayeva G.S. Oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning marketing strategiyasi: i.f.b.f.d. ... avtoreferat. – T.: TDIU, 2020. – 68 b.
4. Zufarova N.G. Oliy ta'limda brend kapitali boshqaruvini takomillashtirish: i.f.b.f.d. ... avtoreferat. – T.: TDIU, 2022. – 58 b.
5. Nishonov D.Sh. Oliy ta'lim raqobatbardoshligini oshirishning marketing strategiyalari: i.f.b.f.d. ... avtoreferat. – T.: TDIU, 2022. – 60 b.
6. Adizov B.I. Innovatsion rivojlanish sharoitida oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari raqobatbardoshligini oshirish (Buxoro viloyati misolida): i.f.b.f.d. ... avtoreferat. – T.: TDIU, 2022. – 60 b.
7. Xamidova A.A. Ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish (oliy ta'lim muassasalari misolida): i.f.b.f.d. ... avtoreferat. – S.: SamDU, 2022. – 61 b.
8. Abdullayev J.A. Oliy ta'lim tizimida davlat-xususiy sherikligi mexanizmi rivojlanishini boshqarish: i.f.b.f.d. ... avtoreferat. – T.: TDTU, 2023. – 77 b.
9. Lee, J. (2013). Creating world-class universities: Implications for developing countries. Prospects, 43, 233-249.
10. De los Rios-Carmenado, I., Sastre-Merino, S., Lantada, A. D., Garcia-Martin, J., Nole, P., & Perez-Martinez, J. E. (2021). Building world class universities through innovative teaching governance. Studies in Educational Evaluation, 70, 101031.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

